

**SHAXMATNI O'RGANISHDAGI 8 TA XATO**

Umirov Uchqun Eshtemirovich

Finlandiya pedagogika instituti aniq-tabiiy fanlar va jismoniy madaniyat fakulteti sport faoliyati shaxmat yunalishi talabasi. O'zbekiston

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada shaxmatchining rivojlanishiga tusqinlik qiladigan hatolar haqida tadqiqotlar bayoni biz va bizdan oldingilar hatolari haqida so'z borib, qanday bu xatolarni takrorlamaslik uchun havaskor shaxmatchilarga tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Tezkor uyinlar, tizimsiz urganish, enshpil, mas'uliyat, havaskor shaxmatchi, me'yor, etyud.

Shaxmatda ham boshqa sohalar kabi boshqa shaxmatchilarning hatosidan o'rganish ham muhimdir. Chunki hayotda ham svetaforda qizil chiroqqa o'tmaslikni o'rganishingiz uchun mashena o'rib ketishi shart emas siz buni boshqalar tajribasidan o'rganasiz, rozetkadan foydalanayotganda qulingizni rozetkaga tiqmaslikni o'rganishingiz uchun sizni tok o'rishi shart emas siz buni boshqalar tajribasidan o'rganasiz, akulalar yoki timsohlar bor joylarda chumilmaslikni o'rganishingiz uchun siz ularga duch kelishingiz shart emas, siz buni boshqalar tajribasidan o'rganasiz. Shaxmatda ham boshqalarning hatosini takrorlamaslik uchun ular qilgan hatolarni o'rganishingiz tahlil qilishingiz kerak, chunki shu xatolarni o'zingiz qilmasligingiz uchun!

**1-xato Xaddan tashqari tezkor uyinlarga mukkasidan ketish.**

Tezkor uyinlar deganda **blits**-bu raqiblarga 10 daqiqadan kam va 3 daqiqadan kuproq vaqt beriladigan shaxmatning tezkor turi va **bullet**-bu 3 daqiqadan kam va 1 daqiqadan kuproq vaqt beriladigan shaxmatning tezkor turi bilan **ultirabullet**-bu 1 daqiqadan kamroq va 0 dan kuproq vaqt beriladigan shaxmatning o'ta tezkor yunalishidir.



(Manba: www.lichess.org )

Rasmda lichess.org dagi tezkor shaxmat uyinlar keltirilgan.

Tezkor shaxmatning shaxmatchiga o'rgatadigan narsasi tezkor pazitsiyaga yuzaki baho berishdir bu nima degani?- bu shaxmatchining uyinida sifat pasayib tezroq javob qaytarish kuchayishi yuz beradi, mashinani qancha tez haydalsa uni vaqtida tuxtatish sifati pasaya boradi, inson hayotida muhim qarorlar chiqarishda ham qancha tez qaror chiqarsangiz shuncha qaroringiz sifati pasayishi mumkin, imtihonda savollarga qancha tez javob bersangiz shuncha javoblaringiz sifati pasayishi mumkin, tillarni qancha tez o'rganishga harakat qilishda ham tilni o'zlashtirish sifati pasayadi. Tezkor uyinlar pokkerga o'xshaydi tasodiflarga boy kechadi tezkor shaxmatchilar standart partiyalarda ham 15 daqiqada tugatib chiqishadi va o'zining bor mahoratini yuzaga chiqara olmaydi va partiyalarga yuzaki qaray boshlaydi.



Mexail Botvinnik va yosh Garry Kasparov

(Rasm manbasi: <http://hungry-bags.ru> )

Garry Kasparov va Mexail Botvinnik

( Rasm manbasi: <http://chessmatenok.ru> )

6-jahon chempioni shaxmatchi Mixail Botvinnik blitsni umuman o'ynamagan va hatto u shunday degan: "Blits shaxmatning ruhini o'ldiradi" va mashhur shaxmatchi trenir Mixail Moiseevich barcha shogirdlariga blits o'ynashni qat'iy man qilgan (hatto Kasparov ham!)

Aslida tezkor shaxmatning ham shaxmatchi o'sishida foidali tomonlari bor faqat ma'lum vaziyatlarda va me'yorida o'ynalganida shuningdek 1-razryad va undan yuqori toifalilar blits uyinlarida o'rgangan yangi debyut variantlari uynashlari tayyorlanishlari tavsiya etiladi, nazariy pazitsiyalarni o'rganishda tezkor shaxmat foydalidir faqat sport ustaligiga nomzodlar va ulardan yuqori toifa egalari uchun masalan piyodali uyin ohirlari, yengil spohli uyin ohirlari, og'ir spohli uyin ohirlarini avtomatik tarzda bemalol uynash uchun tezkor uyinlarda ularga kup duch kelgan bulishingiz va tajribangiz oshgan bulishi foydalidir. Tezkor uyinlaringizni uyindan sung tahlil qiling hatolaringizni qayta takorlamaslikni o'rganing bu foydalidir. 1 haftada 100 tadan kamroq tezkor partiyalar uynash tavsiya qilinadi tezkor uyinlarga mukkasidan ketmang! Tezkor turnirlarda qatnashing har kun 1 ta tezkor turnir normal holat standart turnirlar oldi tezkor turnirlar uynash tavsiya etilmaydi.

## 2-xato **Tizimsiz shaxmatni o'rganish.**

Bu nima degani?- mashg'ulotlarda bugun debyutni o'rgandingiz ertaga mashg'ulotda blits uynadingiz keyingi kun metilshpil kurdigiz hammasi aralashib ketdi bu tizimsiz o'rganishdir. Bunda qanday muammo bor? Tizimsiz shaxmatni o'rganish bu-maktabda bugun 2-sinf darsligini o'qib ertaga 6-sinf darsligini o'qishga keyingi kun yana 1-sinf darsligini o'rganishingizga o'xshatsak buladi yana bir misol dasturxonda turgan barcha yeguliklarni birga yeyishingizga uxshaydi ularni navbat bilan yesangiz mazzali birga yesangiz qaysidir shirin qaysidir achchiq qaysidir nordon qaysidir yegulik boshqa ta'mga ega bulishi mumkin. Shaxmatda biror muafaqiyatga erishishingizda ham tizimsiz shaxmatni o'rganganingizda 5 yilda erishadigan muafaqiyatingizga tizimli shaxmatni o'rganib 1 yilda erishishingiz

mumkin. Tizimli tarzda shaxmatni o'rganish bu debyut o'rganmoqchimisiz o'zingizga mos debyutlar tanlang va ularni kuproq uynaladigan variantlarini o'rganishga mashg'ulot vaqtingizni sarflang variantlarni yaxshi o'rganganingizni bilish uchun praktikangizda o'rgangan variantlaringizni qullab kuring partiyalaringizni tahlil qiling o'rganayotgan debyutingizda uynang o'rganayotgan debyutingizdan keyin vujudga kelgan metilshpillarni o'rganing qanday harakat qilishni o'rganing o'rganayotgan debyutingizni mustahkamlashda doimo izlaning urganayotgan vazivangizga aloqasiz partiyalar uynamang bu vaqtingizni oladi va mashg'ulotda o'rgangan variantingizni o'rganishingizga halal beradi.

### 3-xato **Debyutdagi variantlarni haddan tashqari o'rganish**

Tasavvur qiling siz maktabda fizika darsidasiz va sizga mavzu buyicha ba'zi qonunlarni o'rganish topshirig'i berilgan siz bu qonunlarning barchasini yodlashga qaror qilsangizu lekin nima haqida gapirayotganingizga tushunmasangiz fizikani yaxshi o'rganasizmi shunda? Albatta yuq!



(Rasm manbasi: <http://marvelcinematicuniverse.fandom.com> dan)

Debyutlarning variantlari rasmdagidek cheksiz versiyaga o'xshaydi.

Tavsiyalar: debyutni o'rganing faqat chuqurlashib ketmang 15 xodgacha debyut variantlarini bilish bu normal holat 15 xoddan kami bu yetarli emas 15 xoddan kupi bu kup asosiysi siz 15 xod ichida pazitsiani yaxshilashni o'rganing boshlang'ich 15 xod ichida pazitsia yomonlashadigan variantlarni emas 15 xod ichida rivojlantirishga qaratilgan variantlarni saralash va o'rganish kerak. Raqibiningiz siz o'rgangan variantlardan boshqa yunalishga chiqqanida siz nima qilishni bilmay qolmaslik uchun o'rganayotgan debyutingiz variantlarining g'oyalarini tushunishingiz va doimiy o'rganishingiz sizni raqibingiz varyantlardan chetga chiqqanida qurqmay nima qilish kerakligini bilishingizni taminlaydi. Shaxmatdan mahoratinguz oshgani sayin debyutning ahamiyati oshaboradi eng kuchli nomdor shaxmatchilar debyut uchun vaqtining 80-90% qismini ajratadilar.

Partiyalarda havaskor shaxmatchilarga vaqtning 15-20% qismini debyutga sarflashlari qolgan vaqtlarini esa debyutdan keyin kelgan vaziyatlarda nima qilish kerak degan savollarga javob topishga sarflashlari tavsiya etiladi.


### 4-xato **Enshpil o'rganishga e'tibor bermaslik**

Enshpil shaxmat uyining eng qiyin va chuqur hisoblash talab etuvchi oldindan nima bulishini aytib bulmaydigan va muhim qismidir. Havaskor shaxmatchilarining kup qismining xatosi enshpilda spohlar



kam bulganligi sababli uynash oson, e'tibor bering siz enshpilni o'rganmas ekansiz siz kuchli shaxmatchi bulaolmaysiz.

Uchinchi jahon chempioni Xose Raul Kapablanka aytganidek: "Agar siz enshpilni tushunsangiz, shaxmatni tushunasiz",



Xose Raul Capablanka ( manba: <http://www.stabroeknews.com> )

Jahon chempioni Magnus Carlsen 22 yoshida chempion va barcha davrlarning eng kuchli shaxmatchisi hisoblanadi. U odatda debyutda kuchli emas. O'rtacha grossmeyster darajasidagi debyutlarni biladi, ba'zan esa shunchaki asosiy variyanytlardan qochadi, darhol g'alaba qozonishga harakat qilmaydi rivojlanib raqibni o'zgaruvchanlikda "ushlaydi", lekin kurashning og'irligini ko'taradi metilshpil va enshpil, bu yerda u ayniqsa kuchli.



GM Magnus Carlsen ( manba: <http://worldchess.com> )

Ushbu o'xshashlikdan sizga qanchalik muhimligi ayon bo'lishi kerak yakuniy o'yinni o'rganish va debyutlarni o'rganish qanchalik ahamiyatli, ayniqsa, shaxmatni o'rganishning dastlabki bosqichida. Enshpilni shaxmatni o'rganuvchilar qay darajada bilishi kerak? Kechqurun mazza qilib o'xlab yotganingizda sizni uyg'otishib har qanday spohli o'yin ohirida qanday uynash kerakligini surashganida javob beraoladigan darajada o'rganishingiz kerak!

### 5-xato **Masuliyatni oshirib yuborish**

Kuplab xalqaro turnirlar chempionatlarda siz uzingiz kuchingizda uynay olmaysiz lekin oddiy mashg'ulot uyinlarida yoki kuchada dustlaringiz va tanishlaringiz bilan uynaganda kuchli uynaysiz nega? Balki mashg'ulotda yoki kuchada uynaganingizda chempionatlardagi raqiblarga qaraganda ancha kuchsiz raqibdirilar lekin yana bir sababi bor. Tasavvur qiling siz katta xalqaro turnirda uynayabsiz va ertaga hal qiluvchi uyin buladi yutsangiz katta priz olasiz yutqazsangiz hech narsa olmaysiz xush siz uyin oldi kechqurun o'xlay olarmidingiz? Yuq albatta bunday vaziyata siz stressga tushasiz uyquyingiz kelmaydi asabiylasasiz uy hayolingiz ertangi hal qiluvchi uyinda bulib qoladi natijada sizning miyyangiz normal holatda ishlay olmay qoladi va uyinda o'z kuchingizda uynayolmay qolasiz.

Uyinga ortiqcha masuliyat bilan kirish yaramaydi bu shunchaki uyin sifatida qarash kerak shunchaki shaxmat uynang! Chunki shaxmat bir vaqtning o'zida Fan, San'at va sportdir. Ortiqcha masuliyat ham masuliyatsizlik ham sizni mag'lubiyat sari yetaklaydi. Avvalo shaxmatchi uyindan oldin psixalogik partiyaga tayyor bulishi kerak. G'alaba uchun sizda mativatsiya bulishi kerak shunda siz g'alaba uchun kurashaolasiz.

Chempionlardan ba'zi tavsiyalar:

1 uyin oldi uxlang, dam oling

2 uyindan oldin yoga bilan shug'illanib nafas olish mashqlarini qiling

3 uyin payti suv iching

### 6-xato **O'zidan kuchsizlar bilan kuproq uynash**

Kuchsizlar bilan ko'proq uynash kuproq g'alaba tamini totib kurish degani albatta bu insonga kayfiyat beradi lekin tasavvur qiling 200 kg lik shtangani kutaraoladigan shtangachi 1 oy 30 kg lik shtanga kutarib mashq qilsa keyin u qiynalmasdan 200 kg lik shtangani kutaraoladimi o'z formasiga qaytishi qiyn buladi, yana bir misol mashinani tuzatishni yaxshi biladigan mexanik 5 yil davomida mashinalarni tuzatmay faqat mtaksistlik bilan shug'illansa keyin u mashinani yaxshi tuzataoladimi? O'z formasiga qaytishi qiyn buladi, yaxshi quli yengil jarrox 3 yil jarroxlik qilmasdan o'qituvchilik qilsa va yana jarroxlikka qaytsa u oldingidek yaxshi jarroxlik darajasiga chiqish uchun qancha vaqtini ketkazadi yana, bu holatda ham o'z formasiga qaytishi qiyn buladi, Shaxmatda ham shunday qancha kuchsizlar bilan uynasangiz shuncha uyin sifatingiz tushib ketaveradi keyin yana oldingi formangizga qaytishingiz qiyn bulaboradi.

Shaxmatda faqat kuchlilar bilan uynash bu tez-tez mag'lubiyatni totib kurish degani bu esa sizni shaxmatni o'rganishingizda shashtingizni sunishiga olib kelishi mumkin. Faqat o'zingizdan kuchli raqiblar bilan ham uynash yaramaydi hammasi me'yorida bulishi kerak. Kuproq o'zingizga teng raqiblar bilan o'ynang bunday holatda siz g'alabani ham mag'lubiyatni ham tatib kurasiz. Eng yaxshi usul esa:

50%-o'z kuchiga teng shaxmatchilar bilan o'ynash

25%-o'zidan kuchlilar bilan o'ynash

25%-o'zidan kuchsizlar bilan o'ynash deb uylayman.



(Manba: www.ruchess.ru )

### 7-xato **Me'yoridan ortiqcha mashq qilish**

Tassavur qiling siz chet tilini o'rganmoqchisiz sizga chet tili ustozingiz 1 kunga 20 ta so'z yodlab shu tariqa 10 kun davomida 200 ta so'z yodlashingizni talab qildi siz esa 200 ta so'zni 1-kunni o'zida yodlashga qaror qildingiz natijada siz kuni buyi faqat shu bilan mashg'ul buldingiz oqibatda miyangiz charchaydi kuchli zuriqishga uchraydi siz chet tilini o'rganishdan zerikib qolasiz 200 ta so'zni yod olgan taqdiringizda ham bu so'zlar vaqt o'tgach esingizdan chiqib ketadi. Agar siz 1 kunda 20 ta so'zdan yodlaganingizda esa miyorida shug'illanasiz meyorida miyyaga shu soha buyicha yuklama berasiz va miyyangiz miyorida yuklamalar oshib borishiga kunikadi va kutaraoladi. Zalga chiqqanda ham muskullarni chiniqtirmoqchi bulsangiz-u 1-kunni o'zida 100 kg lik shtangani kutarmoqchi bulsangiz muskullaringiz bunga yaramaydi agar bu og'irlikni kutarib o'rganmagan bulsangiz. Sizga yengilroq shtangalardan boshlashingiz tavsiya etiladi oldin 5 kg keyin 8 kg keyin 12 kg keyin 20 kg va h.k. shunday qilib ma'lum vaqt utgach siz 100 kg ni kutarasiz . Shaxmatda ham shunday siz birdan kuni buyi shaxmat bilan shug'ullansangiz sizda tez o'zgarish buladi degani emas siz o'zingizni charchatganingiz qoladi. Hammasi bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

Havaskor boshlovchilar avval kuniga 1-1.5 soat mashq qiladilar

1-razryad va kmc lar 2-4 soat mashq qiladilar

Sport master va Fide masterlar 3-5 soat mashq qilsalar

Xalqaro master va Grosmeystirlar orada dam olib 1-2 soatdan kuniga 3 mahal yoki 1.5-3 soatdan kuniga 2 mahal shug'ullanadilar kuni buyi faqat shaxmat bilan shug'illanish tavsiya etilmaydi. Jismoniy mashqlar tug'ri ovqatlanish vaqtida dam olish va toza havoda sayr qilish ham tavsiya etiladi asosiy mashqlarga qushimcha sifatida.





GM Sergey Karyakin ( Manba: www.style.rbc.ru )

### 8-xato Etyud va mashqlar yechmaslik

Shaxmatda etyud va mashqlarni yechish shaxmatchini kombinatsiyalarni tez kurishida hisoblash texnikasini rivojlantirishida katta hissa qushadi. Shaxmat mashqlarida kurgan pazitsiyasiga yaqinroq pazitsiya kelganida yoki mashqlarda o'rgangan kambinatsiya g'oyalariga mos pazitsiyalar vujudga kelganida bemalol kombinatsiyani bajara oladi, agar mashqlarda g'oyalarni o'rganmagan etyudlarga layoqatsiz qaragan bulsa buni amalga oshiraolmaydi va o'yindan sung partiyasini treniri bilan birgalikda tahlil qilishganlarida kombinatsiyani borligini kurgach agar usha partiyada mag'lub bulgan bulsa yoki durrang qilib quygan bulsa shaxmatchiga bu juda katta ruhiy zarba va afsuz nadomad buladi lekin sungi pushaymon o'zingga dushman deganlaridek... Doska ustida uylash kerak pushaymon qilmaslik uchun mashg'ulotlarda kuproa mashq yechishga ularning g'oyalariga e'tibor qaratish kerak.Mashq yechish hisoblash qobiliyatini oshirishda eng zarur bulgan shaxmatning yunalishidir.Miyyani ham muskul desak buladi uni rivojlantirish uchun shaxmat mashqlarini yechish eng qulay va yillar sinovidan utgan usullardan biri hisoblanadi.Mashqlarni har kuni yechish odamda zerikish paydo qilishi mumkin o'z darajangizdan kelib chiqib yondashishingizni tavsiya qilgan bular edim. 1 haftada 3-4 kun 30 daqiqadan mashqlarni yechishga vaqt ajratishlaringizni tavsiya etaman.

1-2-razryadlilarga tavsiya etadigan kitoblarim:

1-kitob Костров – 1000 шахматных задач

2-kitob Блох М. — Комбинационные мотивы.

1-razryad va sport ustaligiga nomzodlar uchun esa:

1-kitob Мазья А.Г. — Учебник шахматных комбинаций

2-kitob Горт, Янса — Вместе с гроссмейстерами.

Sport ustaligiga nomzodlar va sport ustalariga esa quyidagi kitoblarni tavsiya etar edim:

Дворецкий М. — Этюды для практиков.

Избранные этюды Каминера и Либуркина.

Qushimcha tavsiyalar bersam: trenirsiz shug'illanmang! Trenir bilan ishlang. Doimo uyindan keyin yoki turnirdan sung treniringiz bilan uynagan partiyalaringizni tahlil qiling! Hatolaringizni toping va eslab qoling takrorlamalik uchun. Partiyalarda rejasiz uynamang hoh u standart partiyangiz bulsin ho u rapid partiyangiz bulsin yoki tezkor partiyangiz bulsin reja tuzishga harakat qiling shunga odatlaning! Internetdagi shaxmat haqidagi malumotlar programmalar va saytlardan tug'ri foydalaning hozirgi zamonda har bir sohada internetdagi malumotlar bilan ishlamasangiz siz uylagan darajada kuchli mutahasis bulaolmaysiz shuni unutmang.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. МАКСИМ ОМАРИЕВ «21 критическая ошибка новичка в шахматах» москва 2021 г
2. Максим Омариёв "75 критических ошибок новичка в шахматах" москва 2020 г.
3. Ласкер Эмануил "Учебник шахматной игры" Шахматный университет -москва 2018 г
4. Мамажон Muhiddinov «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Toshkent — 2007